

UO'K(UDC, УДК): 821.56.18

MUMTOZ MATN TARJIMASHUNOSLIKNING O'ZIGA XOS OBYEKTI SIFATIDA¹⁷

Sapaeva Feruza Davlatovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jahon adabiyoti kafedrası professori,

filologiya fanlari falsafa doktori,

Toshkent, O'zbekiston

Email: feruzasapayeva86@gmail.com.

Orcid ID: 0009-0004-1079-8754

ANNOTATSIYA	KALIT SO'ZLAR
Mazkur maqolada mumtoz matn tarjimashunoslikning o'ziga xos obyekti ekanligi xususida ba'zi qaydlar haqida fikr-mulohaza bildiriladi. Mumtoz matnlar tarjimasida qardosh o'zbek-turkman, qoraqalpoq, ozarbayjon adabiy aloqalarida Maxtumluli maqomi, xususan mumtoz she'riy yoki nasriy matnlar tarjimasi, tarixi, ularni ilmiy tadqiqot sifatida o'rganish, adabiy-madaniy aloqalar tarixini yoritishda, adabiy ta'sir shakllari, ularning o'zaro diffuziyasi, adabiy an'ana va unga munosabat masalalari ochib berildi. Shoir asarlari tarjimasi borasida o'zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon olimlari katta ilmiy natijalarni qo'lga kiritgani va hozirga qadar Maxtumlulining boy merosini o'rganish va tarjima etish ishlari izchil davom etayotgani dadalillandi va ularning poetik tasvir vositalari hamda ma'no qatlamlarining o'zaro uyg'unligi ochiqlandi. Maqolada mumtoz matn tarjimashunoslikning o'ziga xos obyekti ekanligi, Maxtumluli asarlarini qardosh tillarga tarjimalariga bildirilgan ba'zi mulohazalar tahlillangan. Maxtumluli ijodidagi tasviriy ifodalar – obrazlarning badiiy uslub shakllanishidagi o'rni hamda poetik uyg'unlashuvi yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada qardosh tillar tarjimashunosligi adabiy aloqalari ham uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligi, ushbu xalqlarning umumiy madaniyati, tili va turmush tarzi bilan bog'liqligi haqidagi tadqiqotlar xususida ham bahs yuritildi.	Maxtumluli, she'r, tarjima, o'zbek, qoraqalpoq, turkman tili, shakl, mazmun, adabiy aloqalar, hamkorlik, madaniyat. Received: September 15, 2025 Accepted: October 2, 2025 Available online: November 16, 2025

¹⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sapaeva F. Mumtoz matn tarjimashunoslikning o'ziga xos obyekti sifatida. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 224-240.

CLASSICAL TEXT AS A SPECIFIC OBJECT OF TRANSLATION STUDIES

Sapaeva Feruza Davlatovna

Uzbekistan State University of World Languages

Professor of the Department of World Literature,

Doctor of Philosophy in Philological Sciences,

Tashkent, Uzbekistan

Email: feruzasapayeva86@gmail.com

Orcid ID: 0009-0004-1079-8754

ABSTRACT

This article offers reflections on certain observations concerning the notion that the classical text constitutes a distinct object of study within translation studies. The article explores the role of Makhtumquli in the translation of classical texts and in the literary ties between the fraternal Uzbek-Turkmen, Karakalpak, and Azerbaijani literatures. In particular, it examines the translation and historical development of classical poetic and prose texts, their study as academic research, their role in revealing the history of literary and cultural relations, forms of literary influence and mutual diffusion, and the issues of literary tradition and its interpretation.

It is substantiated that Uzbek, Karakalpak, and Azerbaijani scholars have achieved significant academic results in translating Makhtumquli's works, and that the study and translation of his rich legacy continue consistently to this day. The article also highlights the harmony between poetic imagery and layers of meaning in these translations.

Furthermore, the paper analyzes the idea of the classical text as a distinctive object of translation studies and analyzes several observations made regarding the translations of Maxtumorquli's works into related languages. The role of Makhtumquli's figurative expressions—his imagery—in the formation of artistic style and poetic coherence is elucidated. The article also discusses the deep historical roots of Uzbek, Karakalpak, Azerbaijani, and Turkmen literary relations, as well as their connection to the shared culture, language, and lifestyle of these peoples.

KEY WORDS

Maxtumorquli, poetry,
translation, Uzbek,
Karakalpak, Turkmen
language, form, content,
literary relations,
collaboration, culture.

КЛАССИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК УНИКАЛЬНЫЙ ОБЪЕКТ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Сапаева Феруза Давлатовна

доктор философии по филологическим наукам,

профессор кафедры мировой литературы,

Узбекский государственный

университет мировых языков

Email: feruzasapayeva86@gmail.com

Orcid ID: 0009-0004-1079-8754

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены размышления и наблюдения относительно статуса наследия Махтумкули в контексте узбекско-каракалпакско-азербайджанских литературных связей. Рассматривается роль Махтумкули в переводе классических текстов и в развитии литературных отношений между родственными узбекско-туркменской, каракалпакской и азербайджанской литературами. Особое внимание уделяется переводу и историческому развитию подходов к изучению классических поэтических и прозаических текстов как объекта научного исследования, освещению истории литературно-культурных связей, форм литературного влияния и взаимного проникновения, вопросам литературной традиции и отношения к ней.

Доказано, что узбекские, каракалпакские и азербайджанские учёные достигли значительных научных результатов в переводе произведений Махтумкули и что исследование и перевод его богатого наследия последовательно продолжаются и на сегодняшний день. Также раскрыта гармония поэтических образов и смысловых уровней в этих переводах.

В статье проанализированы отдельные замечания, адресованные переводчикам, осуществлявшим перевод произведений Махтумкули на родственные языки, освещена роль изобразительно-выразительных средств (образов) в творчестве Махтумкули как факторов художественного стиля и поэтической гармонии, а также указано на глубокие исторические корни литературных связей между узбекской, каракалпакской, азербайджанской и туркменской литературами и на их связь с общей культурой, языком и образом жизни этих народов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Махтумкули, поэзия, перевод, узбекский, каракалпакский, туркменский языки, форма, содержание, литературные связи, сотрудничество, культура.

KIRISH

Mumtoz matn (nasriy, nazmiy) tarjimashunosligi adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, lingvistika va madaniyatshunoslik, tarix, din, falsafaning kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, mumtoz ijodkorlar ijodiga oid asar va yodgorliklarni tarjima qilish, ularning mazmunini zamonaviy o'quvchiga asl nusxaga xos tarzda yetkazish bilan shug'ullanadi. Ushbu yo'nalish an'anaviy tarjima nazariyasi, davrga oid matnlarning uslubiy, adabiy va madaniy xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. O'zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san'atkorning bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puxta qurollanishi zaruratini tug'diradi. Chunki badiiy mahorat sirlarini har tomonlama mukammal egallab olgan qalamkashgina mazkur ijod mahsuli bo'lmish fikrni asliy monand tarzda ifoda etish san'atini o'zida puxta singdirib olgan iste'dod sohibi sifatida to'laqonli badiiy tarjimalar yaratishdek o'ta mas'uliyatli ishning uddasidan chiqishi mumkin.

Tarjima tadqiqotining asosini, birinchi navbatda, so'z tashkil qiladi, ammo so'z o'z matniy muhitidan (asarning mikro va makrokontekstidan) ajratilgan tarzda emas, balki unga asoslangan holda boshqa so'zlar bilan matniy birikkan, turli-tuman munosabatlarga kirishgan holatida tadqiq qilinadiki, uning bu xususiyati yozuvchi (muallif) ning badiiy-estetik maqsadini ro'yobga chiqarishi vositalaridan biri hisoblanadi, zero, "alohida ajratilgan, matniy holat bilan bog'lanmagan so'z muloqotni tashkil etmaydi, u kommunikativ birlikning alohida unsurigina, xolos" (Musayev Q., 1989, 7).

ASOSIY QISM

Mumtoz matn tushunchasi va uning tarjima-dagi o'rni – tarixiy, falsafiy, diniy, ilmiy yoki badiiy ahamiyatga ega bo'lgan adabiy yodgorlik bo'lib, u ma'lum davr madaniyatining muhim ifodasi hisoblanadi. Bizningcha, bu matnlarning tarjimasi quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishni talab etadi: til xususiyatlari; davr ruhini saqlash.

Tarjimashunoslikda matn obyekti sifatida turli janrlar, uslublar va tarixiy bosqichlarga mansub asarlar tadqiq qilinadi. Shu jumladan, mumtoz matnlar – ya'ni

X-XVIII davrlarga mansub, estetik jihatdan yuksak, poetik hamda diniy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan matnlar ham tarjima tahlilining alohida obyektini tashkil etadi. Ushbu turdagi matnlarni tarjima qilishda lingvistik, stilistik, semiotik hamda kulturologik yondashuvlar chuqur ahamiyat kasb etadi. Mumtoz matnlar — odatda she'riy shaklda yozilgan bo'lib, qoida asosida yaratilgan poetik tizimga (aruz, qofiya, radif) tayanadi. Bu esa ularning tarjimasida shaklini saqlagan holda mazmunni yetkazish masalasini dolzarb qiladi. Tarjimashunos L.S. Barxudarovning ta'kidlashicha, “har qanday matn tarjimasida *ekvivalentlik darajasi* muhim bo'lsa, mumtoz matn tarjimasida bu daraja, ayniqsa, stilistik va estetik ekvivalentlik orqali namoyon bo'ladi” (Бархударов Л.С., 1975, 240).

Mumtoz matnlarning til xususiyatlari ko'pincha adabiy-badiiy til birliklariga ega bo'lib, tarjimada ularning shakl va mazmun jihatdan to'g'ri talqin qilinishi muhimdir. Davr ruhini saqlash – tarjima nafaqat lug'aviy ma'noni, balki she'riyat (matn) ning ruhini, uslubini va davr muhitini ham aks ettirishi kerak. Vaholanki, har bir davrning o'ziga xos madaniy va diniy kontekstlari mavjud bo'lib, tarjimon ularni anglab, adekvat ifoda eta olishi lozim.

Mumtoz matn tarjimasi jarayonida ko'plab murakkab muammolarga duch kelinadi, *birinchidan*, til va uslub masalasi. Maxtumquli she'riyati asl va tarjima variantlari nisbatan zamonaviy til bilan farq qiladi. Masalan, arab, fors va eski turkman tilidagi asarlarda uchraydigan murakkab iboralar va metaforalar tarjimaga muayyan qiyinchilik tug'diradi.

Badiiy asar (nazmiy, nasriy) tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nolari tizimi hissiy-ta'sirchanlik bilan uzviy aloqada bo'lib, “nutq sohibining hayajonini, uning atrofdagi narsa va hodisalarga ijobiy yoki salbiy bahosini ifodalaydi, tasviriylar, obrazlar hamda ular orasidagi o'zaro munosabatlarni oydinlashtirgani holda, muallif maqsadining to'laqonli namoyon bo'lishiga ko'maklashadi” (Musayev Q., 1987, 7). Bu borada so'zlarning turli-tuman matniylar holatlarda g'ayriodatiylar, noan'anaviylar birikuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu holda so'zlar meyorilik doirasini tark etib, asarning g'oyasi, mazmuni, shakli va maqsadini o'ziga xos tarzda ochib berish uchun xizmat qiladi, chunki so'zlarning, ramzlarning

o‘zaro birika olishidagi o‘ziga xoslik yozuvchi tili va uslubiga xos alohida xususiyatlarni ham muayyan etadiki, bu jihatning doim nazarda tutilishi tarjimaning adekvatligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, terminologiya va konsepsiya – Maxtumduli she’riyatida falsafiy va diniy shakiliy so‘zlar o‘ziga xos atamalarga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri tarjima qilish katta mas’uliyat talab qiladi. Masalan, “haqiqat” tushunchasi sharq falsafasida turlicha talqin qilinishi mumkin.

Tarjima nazariyasi va konsepsiyasining ahamiyati shundan iboratki, u ayrim tarjimonlarning subyektiv mayliga, matn tarjimasiga “intuitsiya” yo‘li bilan yondashib, o‘zboshimchalarcha ish ko‘rishlariga to‘siq qo‘yadi. Chunki “Tarjima – bu ilhom, yuksak iste’dod va intsuitsiya bilan chuqur filologik bilim, tinimsiz lug‘aviy mehnat hamda o‘rinli ilmiy sharhning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayondir” (Саломов F., 1983, 149-150). Zero, har qanday amaliy faoliyat singari tarjimachilik ham qonuniyatlar joriy qilinishiga va nazariy umumlashmalar yaratilishiga ehtiyoj sezadi. Bunday qonuniyat va umumlashmalar, o‘z navbatida, kengroq miqyosdagi xulosalarga olib kelgani holda, ularni qator tarjimaviy hodisalarga tatbiq etishga da’vat etadi.

Uchinchidan, intertekstuallik va izohlash zarurati – hozirgi adabiy tilde yozilmagan matnlar ko‘pincha boshqa matnlarga ishora qiladi. Tarjimada bu bog‘liqliklarni aniqlash va ularning mohiyatini tushuntirish muhim.

To‘rtinchidan, tarjima uslubi – mumtoz matnlar erkin yoki so‘zma-so‘z tarjima qilinishi mumkin. Erkin tarjima matn mazmunini tushunarli qiladi, ammo uslubiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

G‘.Salomov “Tarjima nazariyasiga kirish” qo‘llanmasining “Uzoq va yaqin tillardan tarjima” faslida Maxtumduli she’rlari tarjimasi tahliliga kirishar ekan, tarjimonning yutug‘i sifatida “To‘xtamas” va “Bo‘lma” she’rlaridan bittadan band keltirib, ulardagi tarjimon yutug‘ini maqtaydi, keyin esa tanqidga o‘tadi. “Turkmanning”, “Anglamas”, “Do‘ndi”, “Jo‘sh kelsa”, “Ayrildim”, “Bo‘lma”, “Yomg‘ir yog‘dir, sultonim”, “Qolmas-o”, “Aylar” she’rlari tahlili misolida tarjimonni “asl nusxaning matnidan, so‘zlaridan, qofiyalaridan, muallif yaratgan

vazndan” chiqolmaslikda, hijjalab o‘g‘irishda tanqid qiladi, ularning ko‘pi “tarjimadan ko‘ra ko‘chirmachilikni” eslatishini aytib o‘tadi. Shuningdek, tarjimonni turkmancha so‘z va iboralarni ko‘pincha o‘zicha qoldirib, izoh berish bilan cheklanganini aytadi. Shundan so‘ng, olim tarjimada meyor masalasini ilgari suradi. Bu faqat J.Sharipov tarjimalari emas, balki yaqin tillardan tarjima bilan shug‘ullanadigan deyarli barcha tarjimonlarga taalluqli. Chunki yaqin tillardan tarjimada, aytaylik, birgina “qofiyani almashtirish, ya’ni uni o‘zbekchalashtirish – bu butun bandning tuzilishini o‘zgartirish, she’rni chin ma’nosi bilan tarjima qilish degan so‘z bo‘ladi. Bu esa – mehnat, ijodiy izlanishni talab qiladi”. Tarjimonlar esa ayni shu mehnatdan, izlanishdan, ijodiylikdan qochadilar va meyorini unutib, yaqin tillardan tarjima imkoniyatlarini suiste’mol qiladilar va she’rlarning shaklini ham, jumla qurilishini ham, so‘z va iboralarni ham aynan saqlab qolish payidan bo‘lib, o‘quvchini qiynab qo‘yadilar.

Mumtoz matn tarjimasida asosiy yondashuvlar – filologik yondashuv, madaniy yondashuv, tarixiy yondashuvlar qo‘llaniladi.

Filologik yondashuvda asosiy e’tibor matnning shakl va mazmun, uslub, ma’no jihatlariga qaratiladi. Matn chuqur tahlil qilinib, tarjimada har bir so‘zning ma’nosi aniq ifodalanadi.

Madaniy yondashuvda esa tarjima matnning madaniy kontekstini saqlab qolish orqali amalga oshiriladi. Masalan, mumtoz she’riyat tarjimasida milliy obrazlar va ramzlar to‘g‘ri aks ettirilishi zarur.

Tarixiy yondashuvda matn (nazmiy, nasriy) yoki tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog‘liq bo‘lsa, tarjimondan o‘sha davrni yaxshi tushunish talab etiladi.

Mumtoz matn tarjimashunosligining amaliy ahamiyati ilmiy tadqiqotlar bilan bevosita bog‘liq. Chunki qadimiy ilmiy va falsafiy asarlarni tarjima qilish orqali ularning zamonaviy talqini beriladi. Bu esa Maxtumlulidek jahongashta ijodkorning adabiy merosni asrab-avaylash, shuningdek, sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlarini keng ommaga yetkazish bilan baholanadi. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlarini, tarixiy-madaniy merosni saqlash,

mumtoz adabiy-badiiy asarlar millatning tarixiy xotirasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mumtoz adabiy-badiiy asarlar tarjimashunosligi nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatshunoslik, til, tarix va falsafa bilan chambarchas bog‘liq. Tarjima jarayonida shakily-uslubiy noziklik, uslubiy xususiyatlar va madaniy kontekstlar hisobga olinishi zarur. Shuningdek, ushbu tarjimalar nafaqat akademik ahamiyatga ega bo‘lib, balki milliy va jahon merosini o‘rganishda ham muhim o‘rin tutadi.

“Tarjimashunoslik muammosi (muammolar majmuyi – F.S.) da quyidagi munosabatlar haqida gap boradi: 1. Asl nusxa (asliyat) bilan tarjima tillari o‘rtasidagi munosabat (bu yerda qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik erishgan yutuqlardan foydalaniladi). 2. Asl nusxa bilan tarjima o‘rtasidagi mazmun va shakl munosabati (boshqa tillardagi shakllarning estetik funksiyalarini aks ettirish) – bu yerda adabiyotshunoslik, qiyosiy stilistika va poetika yutuqlaridan foydalaniladi. 3. Umuman, asl nusxa bilan tarjimaning badiiy qimmati o‘rtasidagi munosabat – bu yerda adabiy tanqid metodlari qo‘l keladi.

Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo‘lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini *qidirib topish* va muvofiq variant *tanlash* ijodiy xarakterga ega bo‘lib, tarjima qiluvchi kishi, ya’ni tarjimondan ongli mehnat talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima *san’at* jumlasiga kiradi.

Badiiy tarjimaning ijodiy ish, san’at ekanligi quyidagilarda ko‘rinadi: “Birinchisi – tarjimaning til sohasidagi ijod ekanligi bo‘lsa, ikkinchi dalil: agar bir asarni o‘n kishi o‘girsas, ularning tarjimalari bir xil qolipdan chiqqanday, bir-biriga aynan o‘xshab qolmaydi, balki jiddiy farq qiladi. Uchinchi dalil shuki, ayni bir asarni o‘girganda hosil bo‘lgan bir qancha tarjimalar ijodkorlar mansub bo‘lgan

maktab, adabiy an'analar, o'girilayotgan asliyatning tabiati, tur xususiyatlari taqozosi bilan ham bir-biridan yaqqol ajralib turadi" (Саломов F., 1990,18-19).

Til vositalarini u yoki bu darajada tanlash xususiyatini o'z ichiga olganligi jihatidan har qanday tarjima ma'lum ma'noda ijodiy xarakterga ega bo'ladi.

"Tarjima nazariyasining vazifasi – asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi nisbatning qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida, xususiy xarakterdagi tarjima hodisalaridan tug'ilgan xulosalarni ilmiy ma'lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjimachilik amaliyotiga bilvosita ta'sir o'tkazish, uning sifatini yaxshilashga ko'maklashishdan iborat. Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini topish hamda muayyan konkret tarjima masalalarini hal qilishda muqobil model, qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Shunday qilib, asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi munosabat hamda konkret hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan farqlanuvchi, tafovut qiluvchi shakllar tarjima nazariyasining asosiy predmeti hisoblanadi" (Sapaeva F., 2025, 6).

Tarjimachilik ming yillik tarixga ega. Avvalo, arab, fors, hind, turk, rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, adabiy kitoblarni o'zbekchalashtirgan bizning tarjimonlarimiz garchi yozilmagan, sistemalashtirilmagan, umumlashtirilmagan bo'lsa-da, qabul etilgan, o'qilgan, rioya qilingan ma'lum tarjimachilik aqidalariga asoslanib ish ko'rganlar. Masalan, nazm – nasr bilan yoki goho, aksincha, proza – she'riy maqomga solinib o'girilgan; hijjalab yoki erkin, qisqartirib yoki qo'shib, lokalizatsiya yoki modernizatsiya yo'li bilan tarjima qilingan va hokazo. Hatto ba'zi tarjimalarga yozilgan an'anaviy muqaddimalarda nima sababdan u yoki bu tarjimachilik aqidasi, nazariy prinsiplarga rioya qilinganligi tarjimonlar tomonidan asoslangan ham. Bu esa tarjima nazariyasining ibtidosi Oktabr inqilobidan oldin tug'ila boshlaganidan, qadim zamonlardayoq nazariya kurtaklari paydo bo'la boshlaganidan dalolat beradi.

Tarjima san'atiga oid fikrlar tarjima vujudga kelgan dastlabki davrlardan e'tiboran bildirila boshlagani ma'lum. Chunki u yoki bu tarjimani amalga oshirgan tarjimon o'zining tarjima tamoyillari, tarjima haqidagi qarashlarini yo'l-yo'lakay bildirib ketgan. IX asrning birinchi yarmida xalifa Ma'mun ar-Rashid tomonidan

Bag‘dodda tashkil etilgan Ma‘mun akademiyasi – “Bayt ul-hikma” (“Bilimlar uyi”) da rejali asosda tarjimachilik bilan shug‘ullangan tarjimonlarning faoliyatlari tufayli esa bu boradagi fikrlar tizimli tus oldi. Bu ilmiy markazda yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tillaridan ko‘plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilingani, ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga tarqatilgani ma‘lum.

Tarjima nazariyasining ahamiyati shundaki, turli yo‘nalishda ijod qiladigan tarjimonlarning o‘zboshimchaliklariga chek qo‘yib, ularga badiiy tarjimaning amaliyotda sinovdan o‘tgan maqbul yo‘llarini ko‘rsatadi. Tarjimaga qanday yondashish, tarjima jarayonida qanday usullardan foydalanish, u yoki bu muammoni hal qilishda qanday yo‘l tutishni o‘rgatadi. Ko‘p asrlik tarjima tarixi yutuq va qusurlarini tahlil qilish asosida muayyan prinsip va qoidalarni ishlab chiqqan tarjimashunoslik fani har qanday tarjimonga umumiy yo‘l-yo‘riq berishga yo‘naltirilgan. Ana shu umumiy qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda, har bir tarjimon konkret asar tarjimasida yuzaga kelgan o‘ziga xos muammolarni o‘zi individual ravishda hal qiladi.

Tarjima tushunchasining mazmun-mundariyasi nihoyatda keng: bir tildan ikkinchisiga she‘riy, nasriy, dramatik asarlar, publitsistik materiallar, fanning turli sohalariga oid ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, diplomatiya hujjatlari, ish qog‘ozlari, siyosat arboblarning maqola va ma‘ruzalari, notiqarning nutqlari, ommaviy axborot vositalari xabarlari, ilmiy anjumanlardagi chiqishlar, turli tillarda so‘zlashuvchi va bir-birlarini tushunish uchun og‘zaki vositachi tilmochlarning yordamiga muhtoj bo‘lgan kishilarning o‘zaro muloqotlari va boshqalar tarjima qilinadi. Ana shu turli tillardan amalga oshiriladigan barcha sohalarga oid rang-barang janrlardagi tarjimalar tarjimashunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Albatta, tarjimaning xillari ko‘p: 1) uzoq va yaqin tillardan; 2) adabiy tildan uning biror shevasiga va biror shevadan adabiy tilga yoki bir tilning shevasidan boshqa adabiy tilga; 3) qadimgi davr tilidan uning zamonaviy holatiga (tabdil) tarjima qilinadi.

Mumtoz matnlar, ayniqsa, sufiy, didaktik va falsafiy mazmundagi she‘rlar, ikonik obrazlar, allegoriyalar, intertekstual ishoralar bilan boyitilgan bo‘ladi.

(Ikonik obraz – darrov taniladigan, chuqur ma’noga ega, madaniyatda muhim o‘rin egallagan obraz. Masalan, *Xizr* – islomiy va mumtoz adabiyotda *donishmand yo‘l ko‘rsatuvchi shaxs* sifatida tasvirlanadi. U ikonaga aylangan diniy-obrazdir). Ular o‘z davrining madaniy-kodli tizimiga asoslangan bo‘lib, zamonaviy o‘quvchiga begona bo‘lishi mumkin. Shu bois, tarjimon nafaqat til vositalarini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham ishga solmog‘i lozim.

Mumtoz matnlarni tarjima qilish bu ikki madaniyat oralig‘ida estetik muvozanatni saqlash san’atidir. Shuningdek, mumtoz matnlar tarjimasi lingvopoetik tahlil doirasida ham o‘rganiladi. Taniqli tarjimashunoslar A.Fedorov, V.Komissarov, G.Steinerlar bu borada fonetik-sintaktik parallelizm, poetik ritm, simbolik qatlamlarning saqlanishini tarjima san’atining yuqori bosqichi deb hisoblaydilar. Tarjimon, shuningdek, mumtoz matn tarjimasining muallifi – zamonasi, ijtimoiy-madaniy konteksti, diniy-estetik qarashlarini ham chuqur anglamog‘i lozim. Bunday holatda tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy va g‘oyaviy talqin vositasiga aylanadi. Shunday qilib, mumtoz matnlar tarjimasi – bu o‘ziga xos obyekt bo‘lib, u tarjimashunosdan til, adabiyot, tarix, falsafa va madaniyat bo‘yicha chuqur bilim va fanlararo yondashuvni talab etadi.

Mumtoz matn – tarjima amaliyotida asliyatni boshqa tilda adekvat tarzda qayta yaratish uchun talab qilinadigan muvofiq ifoda vositalarini izlab topish va tarjima jarayonida tug‘iladigan muayyan muammolarni hal qilish uchun zarur andozalar, qoidalar, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar aynan tarjimashunoslikning keyingi yillardagi izchil rivoji tarjimalar sifatining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidlaydilar.

Asl nusxa bilan tarjima o‘rtasidagi munosabat hamda muayyan hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan farqlanuvchi, tafovut qiluvchi shakllar tarjima nazariyasining asosiy predmeti hisoblanadi.

Tabiiyki, barcha fanlar kabi tarjimashunoslikning ham o‘rganadigan masalalari, hal qiladigan muammolari mavjud. Tarjimashunoslikda, asosan, quyidagi munosabatlar xususida so‘z boradi:

1. Asl nusxa bilan tarjima tillari o'rtasidagi munosabat (bu yerda qiyosiy tilshunoslik erishgan yutuqlardan foydalaniladi). 2. Asl nusxa bilan tarjima o'rtasidagi mazmun va shakl munosabati (boshqa tillardagi shakllarning estetik vazifalarini aks ettirish) – bu yerda adabiyotshunoslik, qiyosiy uslubshunoslik va badiiyat ilmi yutuqlaridan istifoda etiladi. 3. Asl nusxa bilan tarjimaning badiiy qimmati o'rtasidagi munosabat – bu yerda adabiy tanqid usullari qo'l keladi.

Umuman, mumtoz matn tarjimasini har tomonlama – tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixiy-madaniy, psixologik va boshqa jihatlardan tadqiq etish mumkin. Lekin tarjima til materiali asosida ish ko'rishni taqozo etishi jihatidan lisoniy-uslubiy yo'nalish yetakchilik qiladi.

Har qanday tarjima oldiga ikki talab qo'yiladi:

– asliyatda ifodalangan fikr tarjimada ham to'la, aniq va ta'sirchan tarzda o'z aksini topishi kerak;

– tarjima o'zi o'girilgan til meyorlariga mos kelishi kerak.

Mumtoz matn tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi: tarjima qilinayotgan asarni dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi – bunda tarjima unsurlari yuz beradi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'i nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi) ni o'sha asar matni (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to'la ifodalash demakdir (Tarjima – qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu', taqlid, har xil "adaptatsiya"lardan o'zining xuddi ana shu aniqligi va to'laligi bilan farq qiladi).

Va shuningdek, mumtoz matn (nasr va nazm) tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat ekanligini anglagan holda quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- asl mumtoz nusxani idrok etish;
- asl mumtoz nusxa interpretatsiyasi;
- asl mumtoz nusxani qayta ifodalash.

Asarni o'z tiliga o'girish maqsadida qo'lga olgan tarjimonning asl nusxasini anglashi uch bosqichda sodir bo'ladi:

Birinchi bosqichda – matn so'zma-so'z, ya'ni filologik tarzda idrok qilinadi. Bu bosqichda bir qancha tarjima qusurlari ro'y berishi mumkin: boshqa tildagi bir so'zni xuddi shunday jaranglaydigan bo'lak so'z bilan qorishtirish; yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish; kontekstni noto'g'ri o'zlashtirish, ayrim xos so'zlarning ma'nosiga tushunib yetmaslik; muallifning muddaosini anglamaslik;

Ikkinchi bosqichda – uslubiy omillarga e'tibor qilinadi. Matnni to'g'ri o'qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham anglaydi, ya'ni kayfiyat, piching yoki fojiaviy ma'no, ohangdorlik yohud voqeani quruq bayon qilishga moyillik va hokazo. Rosmana kitobxon barcha bu sifatlarni anglab yetishi shart emas, tarjimon esa muallif qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etishi lozim. Tarjima oddiy o'qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo'lishni talab qiladi;

Uchinchi bosqich – ayrim til vositalarini uslubiy va ma'no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, avtorning g'oyaviy niyatini anglashga o'tadi.

“Matnni anglashning bu yo'li ancha murakkab va og'ir – muallif yaratgan badiiy voqelikni to'laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lmog'i darkor. Asl nusxani to'laligicha qamrab olish, idrok etish uchun, aytaylik, rejissorga qanday tasavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo'lishi zarur” (Саломов Ф., 1978, 102).

Tarjima haqidagi fikrlar tarixi ming yillarni bo'ylaydi. Gap shundaki, tarjima tarixidagi ilk asar tarjimasini amalga oshirish jarayonidayoq tarjimon muayyan

qiyinchilik va muammolarga duch kelgan hamda ularni hal qilish yo‘llarini izlagan. Binobarin, o‘zi uchun muayyan tarjima usullarini tanlab olgan. Aytaylik, so‘zmaso‘z yoki erkin tarjima qilgan, o‘zgartirgan yoki qisqartirgan, soddalashtirgan yoki milliylashtirgan, asliyatga daxl qilmagan yoki o‘zidan qo‘shgan va hokazo. Shuning uchun ham taniqli ozarbayjon tarjimashunosi Bayram Horun o‘g‘li Tohirboyev: “Ikki ming yil muqaddam Liviy Andronik buyuk Homerning “Odisseya”sini lotin tiliga o‘g‘irgan. Bu bilan u amaliy tarjimachilik faoliyatiga “asos solib”gina qolmay, balki birinchi bo‘lib tarjima nazariyasining og‘ir masalalariga duch kelgan ham. Biroq Yevropada tarjima muammolari faqat VIII-IX asrlardan boshlab chinakamiga e‘tiborni torta boshladi. Bu davrda tarjima nazariyasi fan sifatida endigina bolalik davrini o‘tay boshlagan edi” (Тоҳирбоев Б., 1980, 23), – deb yozgan edi.

Ma‘lumki, mumtoz adabiyot – tarjima adabiyoti uchun original (asl) adabiyotning hosilasi. Shunday ekan, mumtoz badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik iste’dodi va badiiyat ilmidan xabardorlik ham talab etiladi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasiga shoir-yozuvchilar yoki badiiy tab’dan bobahra kishilargina qo‘l uradilar. Bu bejiz emas. Jahonning buyuk so‘z san’atkorlari (Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumluli, Berdaq) tuyg‘u va obrazlar olamini chuqur anglamoq uchun tarjimon o‘zi qalban san’atkor bo‘lmog‘i zarur.

Bu borada yaqin (turkiy) tillardan tarjimada ba’zi noqulayliklar kuzatilganini guvohi bo‘lganmiz. 1958-yili bosilgan “Chorak asr devoni” da Maqsud Shayxzoda Maxtumlulining “Qoni bordir” (“Хуны бардыр”) degan barmoq vaznidagi she’rini “Majnun kabi” nomi bilan o‘zbekchaga o‘girib e‘lon qilgan. Lekin tarjimon she’r matnini tarjima jarayonida shunchalik erkin talqin qilganki, uning ayrim baytlari asliyatga umuman to‘g‘ri kelmaydi. Bizningcha (F.S.), Maqsud Shayxzoda ushbu g‘azalni A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov asarlarini tarjima qilib, o‘sha rus shoirlari ta’sirida yurgan paytlari tarjima qilgan. Chunki ayrim baytlar tarjimasida aynan g‘arbona ruh yaqqol sezilib turadi. Masalan, asliyatda:

Көйсе өмрүм жебр ышкына, ызында Межнуны бардыр,
Йүзлери хандан эйлесе, чешимиде хуны бардыр...

Магтымгулы, бу ватаны, сен терк кылыбан йөрмегил,
Хүйр-у пери, гулман-бешер, анча ки жананы бардыр (Магтымгулы.,
1980, 1, 72-73).

Tarjimada:

Majnun kabi ishq ko'yida o'rtanurman shu zamon,
Shoyad o'lsam, mazaq qilib, mendan kular ko'r shayton.
Lekin yurtini, Maxtumquli, tashlab ketma! G'urbatda –
Hur qizining bo'salari zaqqumdan ham ko'p yomon (Шайхзода М.1958, 425).

G'azal matlaining mazmuni: *Umrin ishq hajrida kuysa-da, izida Majnuni bordir, yuzlari kulib tursa-da, ko'zlari qonga to'la bo'lib, unda ko'r shayton haqida gap yo'q. Maqta esa Maxtumquli, sen bu vatanni tark etib yurmagilki, huru pari, g'ilmonu inson kabi ko'plab jononi bordir* ma'nosini o'zida ifoda etib, unda *hur qizining bo'salari zaqqumdan ham ko'p yomonligi* xususida so'z bormaydi. Bunday motivlar G'arb she'riyati, jumladan, A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov she'rlari uchun xosligi ma'lum. Lekin mahoratli shoirning matnga ijodiy yondashuvi mahsuli o'laroq ba'zi baytlar o'zbek tilida jaranglab chiqqan: Asliyatda:

Хер гөзелде бир айып бар, он ики сына орнуда,
Сүйде сиңе назар салсаң, ичресинде ганы бардыр.

Tarjimada:

Kamu ko'stsiz kim aytadi parilarning jamolin,
Oppoq sutga razm solsang, o'shanga ham yuqqan qon.

Umuman olganda, taniqli tarjimashunoslar G'.Salomov va N.Komilovlarning zabardast tarjimon Sh.Shomuhamedovning Umar Xayyom ruboiylari tarjimasining har bir nashri ustida olib borgan tahrirlari munosabati bilan bildirib quyidagi fikrlarini yozgan edilar: Tarjimonning o'z burchini bu qadar chuqur his qilishi uning ijodiy izlanishda kamolot hosil qilayotganidan darak beradi. Chunki tarjimonning o'z ijodiy mahsulidan qanoatlanmasligi o'sha mahsulotning past sifatli ekanligidan emas, balki ijodkor yana ham yuksakroq saviyadagi tarjimalar berishga qobil ekanligidan darak beradi. Bu mulohazani Maxtumqulining mahoratli tarjimonlariga nisbatan qo'llash ham o'rinli bo'ladi.

XULOSA

Umuman olganda, har qanday mumtoz tarjima matnida she'r qofiyasi hozirgi o'zbek o'quvchisi uchun tushunarsiz so'zlar bo'lsa, ularni aynan qoldirib, matn ostida izohlar bergandan ko'ra, adabiy matnga ijodiy yondashish, asliyatning mazmunini saqlagan holda she'r strukturasini qayta ko'rib chiqish yaxshi samara beradi. Qardosh tillardan tarjima talabi shunday: tushunarli so'zlar, misralar, bandlar o'zicha o'tkaziladi, tushunarsiz so'zlar tushunarlisi bilan almashtiriladi, lozim bo'lganda butun she'r tarkibi qayta shakllantiriladi. Mumtoz matn tarjimashunosligi qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri sifatida o'ziga xos obyekt – tarixiy-badiiy, poetik va estetik qadriyatlarni mujassam etgan matnlarni o'rganadi. Ushbu matnlar o'z zamonasi ruhini, ijtimoiy-ma'naviy tafakkurni, milliy mentalitetni aks ettirish bilan birga, badiiy shakl va ifoda vositalarining betakror namunalaridir. Shuning uchun ham ularning tarjimasi adabiy-estetik tafakkur, poetik konstruksiya va madaniy kontekstni chuqur anglashni talab etadi. Mumtoz matnni tarjima qilish – bu faqatgina til vositalarini boshqa tilga ko'chirish emas, balki asarning ichki poetik ritmini, badiiy-estetik tamoyillarini, timsollar va ma'no qatlamlarini saqlagan holda yangi madaniy makonda qayta yaratish jarayonidir. Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan, bunday tarjima faoliyati ikki madaniyat oralig'ida estetik muvozanatni ta'minlaydigan ijodiy va ilmiy mehnat bo'lib, u nafaqat tarjimonning til bilimini, balki badiiy tafakkur va nazariy tayyorgarligini ham sinovdan o'tkazadi. Shu sababli, mumtoz matn tarjimasi adabiyotshunoslikda, xususan, tarjimashunoslikda o'ziga xos metodologik yondashuv va tahliliy mezonlar asosida o'rganilishi lozim bo'lgan murakkab ilmiy-obro'li sohadir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989. – B.7.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы теории перевода). – Москва: Международные отношения, 1975. – 240 с.
3. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, – В. 149-150.

4. Саломов Ғ. Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – В. 18-19.
5. Sapaeva F.D. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Firdavs-Shoh nashriyoti, 2023. – В. 6.
6. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – В. 102.
7. Тоҳирбоев Б. Таржимашунослик фанининг назарий илдизлари // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – В. 23.
8. Магтымгулы. Сайланан эсерлер. Ики томлук. 1-том. – Ашгабат: Түркменистан, 1983. – С. 72-73.
9. Шайхзода М. Чорак аср девони. Танланган асарлар. – Т.: Бадий адабиёт, 1958. – Б. 425.

REFERENCES

1. Barhudarov, L. S. (1975). *Language and translation (Questions of translation theory)*. Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya.
2. Magtymguly. (1983). *Selected works* (Vol. 1). Ashgabat: Turkmenistan.
3. Musayev, Q. (1989). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Fan Publishing House.
4. Sapaeva, F. D. (2023). *Theory and practice of translation*. Tashkent: Firdavs-Shoh Publishing.
5. Salomov, G. (1978). *Introduction to the theory of translation*. Tashkent: O'qituvchi.
6. Salomov, G. (1983). *Translation concerns*. Tashkent: G'afur G'ulom Literature and Art Publishing House.
7. Salomov, G. (1990). *The rivers I drank from*. Tashkent: G'afur G'ulom Literature and Art Publishing House.
8. Shaykhzoda, M. (1958). *A quarter-century divan: Selected works*. Tashkent: Badiiy adabiyot.